

O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari ikki tomonlama va mintaqa kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qildilar



13 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbatda davlat rahbarlari O'zbekiston-Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining joriy holati va istiqbollarini muhokama qildilar.

Oliy darajada o'tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Turli darajalardagi delegatsiyalarning o'zaro tashriflari faollashgan. 2021 yil yakunlariga ko'ra tovar ayirboshlash hajmi 33 foizga oshgan.

Hududlararo yo'nalishda, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi munosabatlar faol rivojlanmoqda.

Tomonlar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlangan turkum tadbirlar o'tkazish muhim ekanini qayd etdilar.

Yaqinda Qozog'istonda ro'y bergan voqealar nuqtai nazaridan Markaziy Osiyodagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

Qozog'iston rahbariyati tomonidan ushbu mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni tiklash, vaziyatni barqarorlashtirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar qo'llab-quvvatlandi.

Telefon orqali muloqot har doimgidek iliq, samimiy va do'stona ruhda o'tdi.

Manba